



AL-BINOYA SHARHUL HIDOYA ASARI MO'TABAR SHARH

Ismoilov Akramjon Adham o‘g‘li

Yuqoridagi boblarda al-Hidoya kitobi va unga yozilgan sharhlar haqida batafsil ma'lumot berib o'tdik. Al-Binoya sharhul Hidoya asari al-Hidoya sharhu Bidayatil Mubtadiy kitobiga yozilgan sharhlarning eng mashhuri va keng tarqalganlaridan biri hisoblanadi.

Al-Binoya sharhul Hidoya asari hanafiy mazhabiga oid ishonchli sharhlardan biridir. Hanafiy fiqhiga oid yozilgan kitoblarning barchasi shu mazhabning matn kitoblaridan foydalangan holda yoziladi. al-Hidoya sharhu Bidayatil Mubtadiy kitobi ham mana shunday e'tiborli kitoblardan biri ekanini unga yozilgan ellikdan ortiq sharhdan ham ma'lum. Al-Binoya ham ana shulardan biri hisoblanadi. Badriddin Ayniy ham o'z asarida avval al-Hidoya kitobining matnini keltirib, so'ng unga sharh yozadi.

Britaniyalik olim Karl Barklamon bergen ma'lumotlarga ko'ra Al-Binoya sharhul Hidoya asarining bir necha qo'lyozma nushalari mavjud. Ular Jazoir, Turkiya, Damashq, Livan, Peshovar va Misr shaharlarida saqlanmoqda¹.

Hijriy 1420-yil (milodiy 2000) Livanning Bayrut shahrida chop etilgan Al-Binoya sharhul Hidoya asariga hozirgi kunda Misr kutubhonasida hanafiy fiqli bo'limida 55-56 raqam ostida saqlanayotgan asarning qo'lyozma nusxasi asos qilib olingan. Bayrutda chop etilgan Al-Binoya sharhul Hidoya asarini doktor Ayman Solih Sha'bon tahqiq qilgan. Kitob quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Asl manbaalarga murojaat qilgan holda kitob yozildi;
2. Muqaddima;
3. Burhoniddin Marg'inoniyning tarjimai holi;
4. Bu kitobni yozishda muallif tutgan yo'l;
5. Badriddin Ayniyning tarjimai holi;
6. "Al-Binoya sharhul Hidoya"da kelgan oyatlarni taxriji, hamda suraning nomi va raqami;
7. "Al-Binoya sharhul Hidoya"da kelgan hadislarni taxriji va tahqiqi;
8. Hukmiy oyat va hadislarni qo'shimcha tarzida qo'shilishi;
9. Hojat bo'lgan paytta joy nomlarini tanishtish.

Badriddin Ayniy o'zining Al-Binoya sharhul Hidoya kitobini muqaddimasida quyidagi so'zlarni keltirib o'tadi: "Al-Hidoya sharhu Bidayatil

¹ B. Ayniy. Al-Binoya sharhul Hidoya.-Bayrut.,2000.-B.79



Mubtadiy kitobi olimlarni xursand qilgan, fazilatli kishilarni faxrlantirgan kitobdir. Hatto madrasada mudarrislarning asosiy qo'llanmasiga, majlislarda olimlarning ishongan kitobiga aylandi. Olimlar har doim al-Hidoya kitobi bilan mashg'ul bo'lishdi. Hamma joyda ta'lif berishdi. Bu kitob – daqiq hazinalarni o'z ichiga olgan, haqiqat belgilarini jamlagan, muxtor fatvolarni qamrab olgan, mufassal xulosali, masalalarga ishonchli javob beruvchi, ajoyib va g'aroyib qoidalari batafsil bayon qilingan, fiqh qoidalariga muvofiq va masalalari tartibga soligan kitobdir. Mana shuning uchun ham ko'plab olimlar faqihlar bu kitobni sharhlashga, sir asrorlarini tushuntirishga bel bog'lashdi".

Bir odam bir kitobdan ta'lif berishi uchun o'z ustozidan ana shu kitobni o'qitishga ijozat (ruxsat) olishi kerak. Badriddin Ayniy ham "Hidoya"ni ta'lif berish uchun ustozlaridan ijozat olgan. Badriddin Ayniy to'rtta ustozdan "Hidoya"ni ta'lif berish uchun ijozat olgan. Quyida ularning Burhoniddin Marg'inoniygacha bo'lgan silsilasini keltirib o'tamiz:

1. Menga shayxim, ustozim Sharofiddin ibn Abu Ruh Iso ibn Xos, u kishiga Fozilho'ja ar-Rumiy, u kishiga Shamsiddin Taksiriy, u kishiga Najmiddin Taksiriy, u kishiga Hisomiddin Husayn Sag'noqiy, u kishiga alloma Muhammad ibn Muhammad ibn Nasr al-Buxoriy, u kishiga Alloma Shamsiddin Muhammad ibn Abdussattor ibn Muhammad al-Imodiy, u kishiga muallif Burhoniddin Marg'inoniy (hammalaridan Alloh Taolo rozi bo'lsin) rivoyat qilgan.

2. Menga ustozim, alloma Jamoliddin Yusuf ibn Muso, u kishiga Shamsiddin ibn Amin ad-Davla, u kishiga ustozimiz, alloma Amir Kotib ibn Amir Umar al-Ataroziy al-Itqoniy, u kishiga Burhoniddin Ahmad ibn Muhammad ibn Sa'd ibn Muhammad al-Buxoriy, u kishiga Shayx Hofiziddin, u kishiga Shamsiddin al-Kardariy, u kishiga muallif Burhoniddin Marg'inoniy (hammalaridan Alloh Taolo rozi bo'lsin) rivoyat qilgan.

3. Menga ustozim, imom alloma as-Siyromiy, u kishiga shayh Sirojiddin, u kishiga alloma Sayyid Sharif, u kishiga Hisomuddin Husayn Sag'noqiy, u kishiga alloma Muhammad ibn Muhammad ibn Nasr al-Buxoriy, u kishiga Alloma Shamsiddin Muhammad ibn Abdussattor ibn Muhammad al-Imodiy, u kishiga muallif Burhoniddin Marg'inoniy (hammalaridan Alloh Taolo rozi bo'lsin) rivoyat qilgan.

4. Menga ustozim, imom Jaloliddin as-Sayriy, u kishiga alloma al-Misriy, u kishiga imom Qovvamuddin al-Ataroziy, u kishiga Burhoniddin Ahmad ibn Muhammad ibn Sa'd ibn Muhammad al-Buxoriy, u kishiga Shayx Hofiziddin, u kishiga Shamsiddin al-Kardariy, u kishiga muallif Burhoniddin Marg'inoniy (hammalaridan Alloh Taolo rozi bo'lsin) rivoyat qilgan.



Ko'rib turganingizdek musulmon olimlari bir kitobni sharhlashdan yoki ta'lif berishdan avval bu kitobni o'qitish uchun ijozat (ruxsat) olishgan. Badriddin Ayniyning bu sharhni yozishilish tarixi haqida Al-Binoya sharhul Hidoya kitobining xotimasida quyidagi so'zlarni keltiradi: "Ajam (arab bo'limgan) xalqlardan bo'lgan bir shaxs bu kitobning yozilishiga sabab bo'lgan. U mendan Hidoya kitobini unga ta'lif berishimni so'radi. Men esa rozi bo'ldim. U agar mumkin bo'lsa Hidoyaning Muzoroba kitobidan ta'lifni boshlashimni iltimos qildi. Men yana rozi bo'ldim. Men har bir darsni sharhlashga kirishdim. Natija o'laroq Muzoroba kitobidan Qismat kitobigacha bir jild sharh yozdim. Ta'lif va sharhlashni hijriy 817-yil Safar oyining birinchi kuni boshladim. Hijriy 817-yil Jumadul Avval oyining 22-kunining payshanba kuni tamomladim. So'ng Muzoroba kitobini sharhlab bo'lganimdan keyin Qismat kitobini sharhlashga kirishdim. Hijriy 817-yil Rajab oyida tamomladim. So'ng hijriy 837-yilgacha bu hol davom etib, kitobni boshidan oxirigacha sharhlab tugatdim. Qismat kitobini sharhlab bo'lgach Tahorat kitobini sharhlashni boshladim. Hijriy 837-yil Jumodul Axor oyining 16-kuni chorshanba kechasi uni tamomladim. So'ng ikkinchi juzni yoza boshladim va uni hijriy 837-yil Ramazon oyining 16-kuni yozib tugatdim. So'ng uchinchi juzni yozishni boshladim va hijriy 838-yil Shavvol oyining 23-kuni zavoldan avval juma kuni ertalab tamomladim. So'ng uchinchi juzni yozishni boshladim. Uni hijriy 847-yil Shavvol oyining o'n uchinchi kuni yozib bo'ldim. Keyin beshinchi juzni yozishga kirishdim, uni hijriy 848-yil Robi'ul Avval oyining ikkinchi kuni tugatdim. So'ng oltinchi juzni yoza boshladim, uni esa hijriy 848-yil Shavvol oyining o'n ikkinchi kuni (payshanba) tamomladim. So'ng yettinchi juzni yozishni boshladim va uni hijriy 849-yil Sha'bon oyining o'n oltinchi kuni (chorshanba) to'liq yozib bo'ldim. Sakkizinchi, to'qqizinchi va o'ninchchi juzlar haqida esa yuqorida xabar berib o'tdik".

Yuqoridagi boblarda faqih Badriddin Ayniyning davlat lavozimlari (muhtasiblik, vaqflar noziri va qozilik)da xizmat qilgani haqida ma'lumotlarni keltirib o'tdik. Shu bois Hidoyaga yozilgan sharhni tamomlash uchun Badriddin Ayniy 33 yil (hijriy 817-yil Safar oyining birinchi kunidan boshlab, 850-yil Muhamram oyining yigirmanchi kunigacha) harakat qilgan.

Badriddin Ayniyning bu sharhni tugatilishi tarixi haqida Al-Binoya sharhul Hidoya kitobining xotimasida quyidagi so'zlarni keltiradi:

"Nihoyat Al-Binoya sharhul Hidoya kitobini hijriy 850-yil Muhamram oyining yigirmanchi kuni Qohiradagi Badriyya madrasasi (hozirgi Al-Azhar universitetining yonida) da tamomladim. Olamlarning Robbisi bo'lgan Alloh Taologa behisob hamdlar bo'lsin. Payg'ambarimiz Muhammad salollohu alayhi



vasallamga salotu salomlar bo'lsin. Alloh Taolo bu kitobning yozuvchisini, o'quvchisini gunohlarini mag'firat qilsin. Omin".